

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH MUHANDISLARI INSTITUTI

KAFEDRA: QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH

FAN: ONA TILI


Taqdimot

Mavzu: O'zbekistonning tarixiy shaharlari. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.

Bajardi: QXM 104-guruh talabasi Qutluqov
Farrux

Toshkent - 2018

Samarqand — Samarqand viloyatidagi shahar. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi (1938 yildan). 1925—30 yillarda Respublika poytaxti. O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon vodiysining o'rta qismida (Darg'om va Siyob kanallari orasida) joylashgan. O'rtacha 695 m balandlikda. Toshkentdan 300 km. Sdan Toshkent—Dushanbe, Toshkent—Turkmanboshi, Toshkent—Uchquduq—Qung'iroq temir yo'llari, Katta O'zbek trakti (Toshkent—Termiz yo'li) o'tadi. Shahar aholisi va xo'jaliklari Shovdor, Bog'ishamol ariklaridan suv oladi. Iyulning o'rtacha temperaturasi 25,9°, eng yuqori temperatura 40—42°, yanvarning o'rtacha temperaturasi 0,2°, eng past temperatura —26°. Maydoni 120 km². Aholisi 519,6 ming kishi (2016); 1975 yil 299 ming, 1970 yil 267 ming, 1959 yil 196 ming, 1939 yil 136 ming, 1897 yil 55 ming, 1865 yil 26 ming. S. shahar Kengashiga qarashli 4 shaharcha (Ingichka, Kimyogarlar, Farhod, Hishrov) mavjud.



Nomlanish tarixi

Tarixiy yozma manbalarda Samarqandning yoshi qadimiyligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Muhammad an Nasafiy „alQand fiy zikri ulamoi Samarqand“, Xaydar asSamarqandiy (12-asr) „Qandiyai Xurd“, Abu Tohirxoja Samarqandiy „Samariya“, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va boshqa ko'plab mualliflarning asarlarida bu haqda yozib o'tilgan. Shu bois o'rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida „G'arbda Rim, Sharqda Samarqand“ deyilgan. Samarqand va Rim insoniyat takdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib „Boqiy shaharlar“ nomini olganlar. Xalq iborasi „Samarqand saykali ro'yi zamin ast“ — Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi) deb bexuda aytilmagan. Amir Temur S.ni o'zgacha mehr bilan qadrladi, obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

„Samarqand“ so'zining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha taxmin va gipotezalar mavjud. Sharq mualliflari „Samarqand“ so'zining birinchi qismi, ya'ni „Samar“ so'zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun'iy ta'riflarni taklif etdilar. Biroq tarixda bunday ismli kishi to'g'risida ma'lumotlar aniqlanmagan. So'zning ikkinchi qismi „kent“ (kand) — qishloq, shahar degan ma'noni bildiradi. Ba'zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha „Samarya“ra yaqin, ya'ni „yig'ilish, yig'in“ so'zidan kelib chiqqan deb izoxlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo'lib, Marokanda — Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir. 11-asr olimlaridan Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy shahar nomining kelib chiqishini „Semizkent“, ya'ni „semiz qishloq“ so'zining buzib talaffuz qilinishi deb tushuntiradilar.

Turizm va tadqiqotlar.

Samarqand qadimiy tarixi va me'moriy yodgorliklari tufayli butun dunyo tan olgan haqiqiy muzey shahriga aylandi. Shu bois respublika hukumati qarori bilan 1982 yilda S.ning Afrosiyob shahristoni, o'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar va 19—20-asrlarda qurilgan „Yangi shahar“dagi binolar, tarix va o'lkashunoslik muzeylari asosida „Samarqand davlat birlashgan tarixiyme'moriy muzeyqo'riqxonasi“ tuzildi. O'sha yilda shaharning tarixiy kismini muhofazalash chegaralari belgilandi.

Samarqandning me'moriy-tarixiy yodgorliklari 2001 yilda YUNESKOning Finlyandiya o'tkazilgan 25 sessiyasida Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi.

Samarqandda 73 ta yirik tarixiy me'moriy yodgorlik: Registon ansambli, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod maqbarasi, Abdidarun majmuasi, Xoja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjidi va boshqa saqlangan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqandda Abu Mansur alMoturidiy asSamarqandiy dafn etilgan Chokardiza qabristoni hududida Moturidiy yodgorlik majmui mozoriga maqbara qurildi, qabriston obod etildi, Burhoniddin Marg'inoniy vafotining 800 yilligi (1997), tavalludining 910 yilligi (hijriy sana bo'yicha) (2000) keng nishonlandi (Samarqand shahridagi Chokardiza kabristoniga dafn etilgan). S.ning markaziy maydoniga Amir Temur haykali o'rnatildi. Shahardagi tarixiy obidalar Xitoy, Hindiston, Yunoniston (Afina), Italiya (Rim) yodgorliklari kabi o'zining go'zalligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi. S.ga har yili dunyoning turli manilakalaridan minglab sayyoxlar kelib ketadilar. Mehmon va sayyoxlarga xizmat ko'rsatuvchi: „Afrosiyob“, „Samarqand“, „Zarafshon“, „Bogishamol“, „Markaziy“, „Prezident otel“ kabi mehmonxonalar qurilgan. Sayyoxlarga „O'zbekturizm“ milliy kompaniyasining Samarqand bo'limi xodimlari xizmat ko'rsatadilar.

Samarqandning tarixiy va arxitektura yodgorliklari

- Qadimgi Afrosiyob manzilgohlari (mil. avv. VIII asr)
- Ulug'bek Rasadxonasi (1428-1429)
- Shoxi Zinda
- Hazrati Hizr masjidi (XIX asr o'rtalari)
- Bibixonim masjidi (1399-1404)
- Ulug'bek madrasasi (1417-1420)
- Sherdor madrasasi (1619-1635/36)
- Tilla Kori madrasasi (1647-1659/6)
- Chorsu bozori (XVIII asr oxiri)
- Bibixonim maqbarasi
- Ruhobod maqbarasi (1380-yillar)
- Oqsaroy maqbarasi (1470)
- Go'ri Amir (1404)
- Namozgoh masjidi (17 asr)
- Ishratxona maqbarasi (1464)
- Xo'ja Ahror ansambli (15-20 asrlar)
- Cho'pon ota maqbarasi (1430-1440)
- Xo'ja AbduDurun qabristoni (15-19 asrlar)



Tarixiy obidalari

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo‘lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qo‘shgan shahardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati rahbarligida mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta‘mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta‘mirlash, obodonlashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Temuriylar sulolasi yaratgan arxitektura yodgorliklari Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Italiya kabi davlatlarda yaratilgan arxitektura obidalaridan aslo qolishmaydi.

Mustaqillik yillarida qaytadan barpo etilgan al Buxoriy, Motrudiy va boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir. Samarqand qadimiy Rim bilan tengdoshdir. Uning tarixiy madaniyatining quyi qatlamlari eramizdan avvalgi I ming yilliklarga borib taqaladi. U qadimgi va hozirgi jumboqli Sug‘d davlatining poytaxti Maroqand shahri qoldiqlari bilan tillashadi. Samarqand shahridagi Afrosiyob juda ko‘p qonli voqealarni boshidan kechirgan.

XIII asr boshlarida mo‘g‘ul bosqinchilari O‘rta Osiyoning tinch hayotiga tajovuz soldi, ular juda ko‘plab shaharlarni, san‘at yodgorliklari va madaniy boyliklarini vayron etdilar. Chingizxon qo‘shinlari tomonidan Afrosiyob yer yuzidan yo‘q qilindi. Uylar va saroylar yondirildi, necha asrlab suv berib turgan suv quvurlari barbod etildi, gullab-yashnab turgan bog‘lar kultepalarga aylantirildi. Biroq shahar o‘lmadi, aksincha, XIV-XV asrga kelib yanada gullab-yashnadi. Bu kunlar buyuk sarkarda Amir Temurning Samarqand shahrini o‘z saltanatining markaziga aylantirishga qaror qilgan davrlarga to‘g‘ri keldi. Amir Temur saroyida bo‘lgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘z bitiklarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi:

"Temur bu shaharning gullab-yashnashini xohlardi, u qaysi yurtni egallamasin, u yerdan odamlarni bu yerga yashashi uchun olib kelar, ayniqsa turli yo‘nalishlardagi ustalarni yig‘ishga harakat qilardi".

Temur o‘z yurti poytaxtini dunyodagi eng katta va ko‘rkam shaharlar qatoriga qo‘shishni istardi. Shu boisdan Samarqand shahri atrofidagi qishloqlar Bog‘dod, Damashq, Qohira kabi buyuk shaharlar nomini oldiki, Temur o‘z poytaxti oldida bu shaharlar bir qishloqchalik bo‘lishini istardi. Samarqand shahrini 13 ta katta bog‘ yashtanib turardi, ularning eng kattasi shu darajada keng ediki, tarixning shohidlik berishicha, bir kuni shu bog‘da adashib qolgan otni bir oy izlashgan ekan. Afrosiyob Samarqand shahrining qadimiy qoldiqlari, uzoq asrlar davomida 10-15 metr chuqurlikda ko‘milib ketgan arxeologik qazilmalari bilan mashhur, qadimiy aholisi VI-VIII asrlarda hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi tepaliklarda, taxminan 2 kv km maydonda yashagan. Samarqand shahri yodgorliklari o‘zining buyukligi bilan odamlarni qoyil qoldirgan. Uning binolari devorlaridagi zangori naqshlari, arxitektura shakllari, turli ko‘rinishlardagi geometrik shakllari bilan kishini hayratga soladi.

Bular Registon, Shohi Zinda, Go‘ri Amir maqbaralari ansambllaridir.

Samarqand atrofidagi Afrosiyob tepaliklari bo‘ylab Shohi Zinda me‘morchilik ansamblining 11 ta maqbaralari joylashgan. Bu ko‘chalarni qurishni hech kim rejalashtirmagan, ular o‘z-o‘zidan yuz yillar davomida barpo etilgan. Shohi Zinda so‘zi „Tirik shoh“ ma‘nosini anglatib, uning madaniyati bu yurtlarga islom kirib kelgunicha gullab-yashnagan. Afrosiyob gullab-yashnagan davrlarda uning shuhrati shu darajada yuqori ediki, o‘sha davrdagi islom peshvolari u bilan kurashishga hayiqishgan.

Uning shuhrati to‘g‘risida afsonalar yaratilgan, ulardan biri Muhammad Qosim ibn Abbos payg‘ambarning [amakiyachchasi](#) ekanligi haqidagi afsonadir. „Bibixonim“ nomidagi go‘zal masjid eski shaharga kirish darvozasi oldidagi maydonda joylashgan. U to‘rtta inshootdan iborat bo‘lib, bular kirish galeriyasi, asosiy masjid va ikkita kichik masjidlar, ular bir-biri bilan aylamma gumbazli va uch qatorli tosh devorlar orqali bog‘langan.

Aytishlaricha, Amir Temurning uzoq mamlakatlarga qilgan safarlaridan birida uning eng suyukli xotini Saroymulixonim, xalq ichida uni Bibixonim deb ham ataydilar, mamlakatdagi eng mashhur bashoratchilarni yig‘ib, yulduzlar bashorat qilgan vaqtda ushbu masjidni qurishni boshlagan ekan. Bibixonimning chiroyiga oshiq bo‘lib qolgan va sevgi yo‘lida devona bo‘lib o‘z jonini fido qilgan yosh me‘mor masjidni qurilishi tugash arafasida ishni paysalga sola boshlagan, chunki masjid qurulishining tugashi uning uchun Bibixonim ruhsoridan ayrilishi edi.

Buxoro — O‘zbekiston shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma‘muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Buyuk ipak yo‘li yirik tijorat markazlaridan bo‘lgan. O‘zbekistonning janubiy-g‘arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan. Toshkentdan 616 km. Buxoro 2 ta shahar tumani (Fayzulla Xo‘jayev va To‘qimachilik)ga bo‘lingan. Aholisi 264 ming kishi (2001).



Buxoro shahri sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, Buxoroga miloddan avvalgi 1-ming yillik o‘rtalarida asos solingan. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara — hayvonot va o‘simlik dunyosi betakror, ko‘l va oqar suvlarga boy bo‘lib, tarixchi Narshaxiyning „Buxoro tarixi“ asaridagi ma‘lumotlar buni tasdiqlaydi.

Buxoro shahrining Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi ilk davrlardan boshlab hunarmandchilik tarmoqlari (kulolchilik, temirchilik, misgarlik, zardo‘zlik, zargarlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik va h.k.) va savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Arxeologik tadqiqotlar

Buxoro shahrini arxeologik jihatdan faol oʻrganish ishlari 70-80-yillarga toʻgʻri keladi. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining maxsus arxeologik jamoasi (A. R. Muhammadjonov, I. Ahrorov, J. Mirzaahmedov, Sh. Odilov) va Oʻzbekiston Madaniyat vazirligining Meʼmoriy yodgorliklarni taʼmirlash va asrash instituti otryadi (Ye. G. Nekrasova boshchiligida) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida hozirgi Buxuro viloyati hududida miloddan avvalgi 4-3-ming yilliklardayoq ovchilik va baliqchilik bilan shugʻullangan, toshdan turli qurol va buyumlar yasash mahoratlari yuksak darajaga yetgan neolit davriga mansub qabilalar yashagani aniqlandi. Miloddan avvalgi 2-ming yillikning 2-yarmida Zarafshon daryosi oʻzaniga yaqin yerlarga, ayniqsa uning qad. tarmoqlari (Vobkentdaryo, Mohondaryo, Gujayli va boshqalar) havzalariga chorvadordehqon qabilalar kelib joylashib, ular botqoq yerlarda dehqonchilik qilish bilan birga yaylovlarda chorvachilik bilan ham mashgʻul boʻlganlar. Arxeologlar Qorakoʻl tumanidagi Zamonbobo degan joydan mazkur qabilalar manzilgohlaridan birining qoldiqlarini topib oʻrgandilar. Shu bois bu madaniyat fanda Zamonbobo madaniyati deb ataldi. Miloddan avvalgi 1-ming yillikda Buxoro vohasida astasekin sunʼiy sugʻorish tarmoqlari va mustahkamlangan qishloqlar vujudga kela boshlaydi. Zarafshon daryosining kad. tarmogʻi — Shoxrud boʻylaridagi dastlabki qishloqlarning, jumladan hozirgi Buxoro shahri oʻrnida boʻlgan qishloqning barpo boʻlishi aynan ana shu davrga toʻgʻri keladi. 70-yillarda Buxoroning eski shahar qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Buxoroni arxeologik jihatdan oʻrganish tarixida birinchi marta materik qatlama qadar yetib borishga va madaniy qatlamlanish chuqurligi 20 m dan ortiq ekanligini aniqlashga muvaffaq boʻlindi. Mir Arab madrasasi yaqinidagi arxeologik qazishma chogʻida materik qatlam ustida toʻq jigarrang torf qatlami (40-70 sm) borligi, uning ichida esa yovvoyi va xonaki hayvonlar suyaklari qoldiqlari hamda sopol idish va buyumlar parchalari koʻp ekanligi maʼlum boʻldi. Torf qatlami Madrasa tomon tobora qalinlashib borib, bino ostiga kelganda qalinligi 7,5 m ga yetgan. Bu esa qadimda Buxoro hududidan Zarafshon daryosi tarmoqlaridan biri — ilk oʻrta asr manbalarida qayd etilgan „Rudi zar“ („Oltin irmoq“) ning oʻtganligini isbotlaydi. Arxeologik tadqiqotlar keyinchalik qurib qolgan mazkur tarmoqning har ikki qirgʻogʻi boʻylab bir qancha mustahkamlangan qishloqlarning vujudga kelgani va ular Buxoroning eng qadimgi shahar oʻzagini tashkil qilganini tasdiqladi.

Shahar yoshi aniqlashga doir tadqiqotlar

Shuningdek, shaharning yoshini aniqlash maqsadida butun Buxoro vohasi boʻylab, chunonchi yirik arxeologik yodgorliklar — Poykend, Qoʻrgʻoni Vardonze, Romitan, Varaxsha, Xoja Boʻston, Qoʻzimontepa, Oqsochtepa va boshqa shahar harobalarida keng arxeologik qazishmalar olib borildi. Konimex tumanida miloddan avvalgi 6—5-asrlarga doir yodgorliklar (Chordara shahar harobasi, Qumrabod — I, Qumrabod — II, Arabon — I, Arabon — II nomli mustahkamlangan qishloqlar, miloddan avvalgi 6-asrga oid Shodibek va Qalqonota qoʻrgʻonlari) topib oʻrganildi (1975—77). Ulardan yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik va meʼmorlikka doir koʻplab ashyoviy dalillar topildi. Oʻsha davrga taalluqli qishloqlar qoldiqlari Jondor tumanidagi Xojaxotin, Laylakxoʻr, Boshtepa, Oqtepa va boshqalar joylardan ham topildi.

Shahar yoshi belgilanishi

Arxeologik tadqiqotlar jarayonida Buxoro xususidagi yozma manbalarda keltirilgan maʼlumotlar bilan arxeologik topilmalar qiyoslanib, quyidagicha xulosaga kelindi. Zarafshon daryosining quyi oqimidagi dastlabki manzilgohlar jyo davri (miloddan avvalgi 2-ming yillikning 2-yarmi) dayoq vujudga kelib, ular sinchli yarim yertoʻlalardan iborat boʻlgan (qurib qolgan Mohondaryo tarmogʻi mintaqasida olib borilgan tadqiqotlar buni tasdiqlaydi); miloddan avvalgi 6—5-asrlarda Zarafshon daryosining yirik tarmogilari deltalari joylashgan yerlarda mustahkamlanmagan manzilgoxlar paydo boʻlgan. Miloddan avvalgi 4-asrda esa Buxoro arki qurilajak hudud baland mudofaa devori va keng xandaq bilan oʻrab olinib, uning etagida uchta mustahkamlangan manzilgoh joylashgan (bu xil manzilgohlar miloddan avvalgi 1-ming yillik boshidan Oʻrta Osiyoning dehqonchilik qilinadigan viloyatlariga xosdir). Mazkur manzilgohlardan biri Firobdiz, ikkinchisi Navmichkat, uchinchisi Buxoro deb atalgan. Keyinchalik bu uch manzilgoh oʻzaro birlashib va toʻxtovsiz taraqqiy etib borib, kattagina shaharga — Buxoro vohasining savdohunarmandchilik va maʼmuriy markaziga aylangan.

Tarixiy va arxitektura yodgorliklari

- Ark (11 - 20 a.)
- Boloqovuz ansambli (18-asr boshlari - 20 a.)
- Bola Hovuz masjidi (1712)
- Ismoil Somoniy maqbarasi (9-10 a.)
- Chashmai Ayub maqbarasi (1380 yoki 1384/85)
- Abdullaxon madrasasi (1596/98)
- Modarixon madrasasi (1556/57)
- Baland masjidi (16 a. boshlari)
- Govkushon majmuasi - Masjid, Minora, Madrasa (16 a.)
- Xo'ja zaynuddin majmuasi (1555)
- Poi Kalon ansambli (12—14 a.)
- Labiqovuz ansambli (16-17 a.)
- Ko'kaldosh madrasasi (1568/69)
- Nodir Devonbegi madrasasi (1622—23)
- Nodir Devonbegi xonaqohi (1620)
- Ulug'bek madrasasi (1417)
- Abdulazizxon madrasasi (1652)
- Sayfiddin Boharziy maqbarasi (13 a. ikkinchi yarmi—14 a.)
- Bayonqulixon maqbarasi (14 a. ikkinchi yarmi, 15 yoki 16 a.)
- Namozgoh masjidi (12-16 a.)
- Fayzobod xonaqohi (1598/99)
- Chor Minor (1807)

Sitorai Mohi Xossa Buxoro Amiri saroyi (19 a. oxiri 20 a. boshlari)

Chor Bakr me'moriy majmuasi (*shayx Jubayra sulolasi dafn etilgan joy*)(1560/63)

Xiva – Xorazm viloyatidagi shahar. Xiva tumani markazi. O‘zbekistonning shim.g‘arbida, viloyatning janubida, Amudaryoning Shahar yonidan Urganch (30 km). qismidagi juda ko‘p timsolini o‘zida

chap sohilida daryodan 40 km janubida, 91 m balandlikda joylashgan. Polvonyop (qad. Xeykaniq) kanali o‘tgan. Yaqin temir yo‘l stansiyasi – Maydoni 0,08 ming km². Aholisi 51,2 ming kishi (2004). Shaharning qadimgi arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Ichan-Qal’a sharqning ekzotik shahar saqlab qolgan afsonaviy shahardir.



Xiva – O‘zbekistonning qad. shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, shahar mil. av. 5-asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qad. qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudugi bilan bog‘liq. Ba’zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo‘lgan qad. osetin tilidagi "Xiauv" – qal’a so‘zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan okib o‘tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o‘zgartirilgan (Xeykaniq–Xeyvaniq–Xeyvaq–Xeva–Xiva) nomidan kelib chiqqan deydilar. Xorazmlik tarixchisolnomachi Xudoyberdi Qo‘shmuhammad o‘zining 1831 yilda yozgan "Dili G‘aroyib" asarida Xorazmning qad. shaharlarini nommanom sanar ekan, "Bu mamlakatning yana bir qal’asi – Qal’ai Ramldir. Bu qal’aga Som ibn Nuh asos solgan bo‘lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir" deydi.

Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga bo‘lib taqaladi. Bunda Nuhning o‘g‘li Som bo‘lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatan ham Xivaning Ichan qal’asida qad. Xeyvaq (Xivak) qudug‘i saqlanib qolgan.



Xiva to‘g‘risidagi dastlabki ishonchli ma’lumotlar 10-asrdan boshlab arabfors tilidagi tarixiygeografik manbalarda uchraydi.

Istaxriy (930) Xivani o‘sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro‘yxatiga kiritgan. U. Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya (Gurganj) yo‘lida joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma’lumotlariga ko‘ra esa Xiva bilan Hazorasp o‘rtasidagi masofa 8 dovon (10 farsax)dan iborat bo‘lgan. Xiva Yoqut Xamaviy (13-asr), Nizomiddin Shomiy (14-asr) asarlarida ham karvon yo‘lida joylashgan shahar sifatida eslatib o‘tiladi.

O'rta asrlardagi tarixi

Shahar Xorazmshoxdar davri (12–13-asr boshi) ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220–21 yillarda Xiva Chingizxon qo'shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq qayta tiklana boshladi.

Hunarmandchilik (kulolchilik, koshinkorlik va boshqalar) rivojlandi.

Keyingi davrda ayniqsa, 16–19-asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O'rta va Yaqin Sharq shaharlari bilan savdo aloqalari o'rnatildi.

Xiva 16-asrning 2-yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi.

Me'moriy qiyofasi ham o'zgarib bordi. Shahardan o'zaro ko'ndalang kesishgan 2 ta katta ko'cha va 4 darvoza (Otadarvoza, Polvondarvoza, Bog'chadarvoza, Toshdarvoza) orqali Dishan qal'a (rabod) ga chiqiladi. Ichan qal'a devorining uzunligi 2200 m, balandligi 6–8 m, tag zaminining qalinligi 5–6 m. Qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 m, eni 400 m, jami 26 gektar maydonga ega.

Xivaning rabod qismi Dishan qal'a 1842 yil Olloqulixon davrida (1825–42) baland devor bilan o'rab olingan. O'sha davrda Ichan qal'ada 33 mahalla (machitqavm) va Dishan qal'ada 34 mahalla bo'lgan. Mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasbkori (Chitkarlik, Elakchilik, Kulollar, Misgarlik, G'assollar) yoki shaxs lavozimi (Otamurod qushbegi, Yoqub mehtar, Yusuf yasovulboshi) bilan atalgan. Shaharda 109 kattakichik ko'cha, 79 masjid va 120 qorixona bo'lgan. Xivada 19-asr o'rtalarida 20 ming kishi yashagan. Shahar, asosan, 19-asrning 2-yarmidan kengaya bordi.

Xivaning tarixiy va arxitektura yodgorliklari

- Ichan-Qal'a: Masjid va Saidboy madrasasi (18asr oxiri - 19asr boshlari)
- Polvon Darvoza darvozasi atroflari
- Allaqulixon madrasasi (1834/35)
- Qutlug' Murod Inoq madrasasi (1804/12)
- Tim va Allaqulixon Karvon saroyi (19asr)
- Abdullaxon madrasasi (1865)
- Anushxon masjidi va saroyi (1657)
- Tosh Hovli (Allaqulixon saroyi) (1830/36)
- Oq masjid (1832/42)
- Juma masjid minorasi (1788/89)
- Said Alovuddin maqbarasi (14asr)
- Muhammad Aminxon madrasasi (1851/52)
- Kalta Minor minorasi (1855)
- Ko'hna Ark (1868/88)
- To'ra Murodtur minorasi (1888)
- Muhammad Aminxon madrasasi (1871)
- Sherg'ozixon madrasasi (1718/20)
- Bog'landi masjidi (19asr)
- Arabxona madrasasi (1838)



O‘zbek tili (O‘zbekcha yoki O‘zbek Turkchasi) — Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi.

Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

O‘zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi til fanda **qadimgi turkiy til** deb yuritiladi.

Qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (VI—VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI—XIV asrlarda amalda bo‘lgan til **eski turkiy til** deb ataladi. Mahmud Qoshg‘ariyning „Devonu-lug‘atit-turk“ („Turk tillari devoni“), Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga yo‘lovchi bilim“), Ahmad Yugnakiyning „Hibatul haqoyiq“ („Haqiqatlar armug‘oni“), Xorazmiyning „Muhabbatnoma“, Rabg‘uziyning „Qissai Rabg‘uziy“ asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til **eski o‘zbek adabiy tili** deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher

Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatib kelayotgan til **hozirgi o‘zbek adabiy tili** deb ataladi.

„Turkiston viloyati gazetisi“ nashr qilina boshlagan vaqtdan (1870-yildan) e‘tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o‘zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

Eski o‘zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog‘liqdir. U eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi „Muhokamat-ul-lug‘atayn“ nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o‘zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.

Arab yozuvi

O'zbekistonda 1929-yilgacha arab yozuvidan foydalanilgan. 1920-yillarning o'rtalaridan O'zbekistonda arab yozuviga keng hujum boshlandi. Arab yozuvi qoloqligimizning, savodsizligimizning, dindorligimizning sababchisi deb e'lon qilindi. 1929—1930 o'quv yilidan O'zbekiston lotin yozuviga o'tdi va biz o'zbek xalqining asrlar davomida yaratilib kelingan hamda chop etilgan ilmiy, badiiy va falsafiy adabiyotdan uzilib qoldik.

Yanalif

1929-yildan boshlab arab yozuvidan yangi lotin vozuviga (yanalif) o'tilgan. U 1940-yilgacha ishlatilgan.

A a	B b	C c	Ç ç	D d	E e	Ə ə	F f
G g	Ƣ ƣ	H h	I i	J j	K k	L l	M m
N n	ƞ Ɵ	O o	Ө ө	P p	Q q	R r	S s
Ş ş	T t	U u	V v	X x	Y y	Z z	Ʒ ƹ
	,						

Kirill yozuvi

1940-yilda O'zbekistonda kirill yozuviga o'tildi. Buning natijasida 1929—1940-yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy, badiiy, pedagogik, o'quv adabiyotlardan uzilib qoldik.

А а	Б б	В в	Г г	Д д	Е е	Ё ё	Ж ж
З з	И и	Й й	К к	Л л	М м	Н н	О о
П п	Р р	С с	Т т	У у	Ф ф	Х х	Ц ц
Ч ч	Ш ш	Ъ ъ	Ь ь	Э э	Ю ю	Я я	Ў ў
Қ қ	Ғ ғ	Ҳ ҳ					

1940-yildan 1991-yilgacha o'rta hisob bilan o'zbek tilida 50 ming nomda 50 million nusxada kitoblar chop etilganini (bunga shu yillari nashr etilgan jurnal, gazetalar kirmaydi) hisobga olsak, biz yana lotin yozuviga o'tishda qanchadan-qancha adabiyotdan yiroqlashishimiz mumkinligi ayon bo'ladi.

Lotin yozuviga ko'chish

Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilindi va lotin alifbosiga bir nechta yangi harflar qo'shilgan holatda, O'zbek alifbosi yuzaga keldi. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari lotin yozuvidan foydalanadilar. Shuning uchun ham hozirgi eng zamonaviy texnika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy tadqiqotlar haqidagi adabiyotlar shu yozuv asosida yoritiladi. BMT, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlarning xabar qilishlaricha, yangi texnika, texnologiya va fanga tegishli adabiyotlarning 80 foizi lotin yozuvida chop etilar ekan.

A a	B b	D d	E e	F f	G g	H h	I i
J j	K k	L l	M m	N n	O o	P p	Q q
R r	S s	T t	U u	V v	X x	Y y	Z z
O' o'	G' g'	Sh sh	Ch ch	ng	'		

The background is a dark blue gradient with a subtle pattern of white stars and technical diagrams. On the right side, there are several circular diagrams resembling gauges or dials with numerical scales (e.g., 160, 170, 180, 190, 200, 210) and arrows. On the left, there are dashed circular paths with arrows indicating direction. The overall aesthetic is clean, modern, and technical.

**E'tiboringiz uchun
Raxmat!**